

# **YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA LIZING MUOMALALARI HISOBINING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI**

**Alisher Komilovich BAXADIROV**

dotsent

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi  
Toshkent, O'zbekiston

## **Annotatsiya**

Maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida lizing muomalalari hisobining muammo va istiqbollari lizing operatsiyalarini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida yuritish zaruriyati, lizing tushunchasi, uning hisobi, moliyaviy hisobotda aks ettirilishi, xalqaro standartlar talablari va amaliyotdagi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, lizing operatsiyalarini ekologik me'yorlarga mos ravishda optimallashtirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va xalqaro tajribadan foydalanish istiqbollari yoritiladi.

**Tayanch so'zlar:** yashil iqtisodiyot, lizing muomalalari, ekologik barqarorlik, yashil lizing, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, moliyaviy shaffoflik, hisob tizimi, ekologik me'yorlar, investitsion jozibadorlik.

# **ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧЕТА ЛИЗИНГОВЫХ СДЕЛОК В ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

**Алишер Комилович БАХАДИРОВ**

доцент

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан  
Ташкент, Узбекистан

## **Аннотация**

Проанализированы проблемы и перспективы учета лизинговых операций в условиях зеленой экономики, в том числе необходимость ведения лизинговых операций на основе принципов экологической устойчивости, понятие лизинга, его учет, отражение в финансовой отчетности, требования международных стандартов и существующие проблемы на практике. Также отмечены перспективы оптимизации лизинговых операций в соответствии с экологическими стандартами, повышения финансовой прозрачности и использования международного опыта.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, лизинговые операции, экологическая устойчивость, зелёный лизинг, финансовая отчётность, международные стандарты, финансовая прозрачность, система учёта, экологические стандарты, инвестиционная привлекательность.

Zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi muhim rol o'ynamoqda. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ekologik barqaror lizing operatsiyalarining joriy etilishi mamlakatlarning investitsion jozibadorligini oshiradi. Lizing operatsiyalari xalqaro miqyosda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xususan, Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda global lizing bozori hajmi 1,5 trillion AQSh dollariga yetgan bo'lib, bu 2015-yilga nisbatan 45% o'sishni anglatadi. Rivojlangan mamlakatlarda lizing iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, Germaniyada umumiy asosiy kapital qo'yilmalarining 22%, AQShda esa 30% aynan lizing hisobidan moliyalashtiriladi. O'zbekistonda ham lizing bozori izchil rivojlanmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda mamlakatda lizing xizmatlari bozorining umumiy hajmi 2,3 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 12 trillion so'mga yetdi. So'nggi yillarda ekologik lizing dasturlariga talab ortib, O'zbekistonda yashil lizing bozorining o'sish sur'ati yiliga 18-20% ni tashkil qilmoqda. Yashil lizing iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirishda muhim vositadir. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2019-yilda yashil lizing bozorining o'sish sur'ati 15% bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 25% ga yetdi. Xitoyda esa hukumat tomonidan ekologik transport vositalarini moliyalashtirish uchun yashil lizing mexanizmlariga subsidiya ajratilishi natijasida 2022-yilda bu segmentning ulushi 35% ga yetdi.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida lizing operatsiyalarini ekologik yo'nalishga moslashtirish zarurati ortib bormoqda. Jumladan, 2022-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish milliy strategiyasi"da ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va ularni moliyalashtirish vositalaridan biri sifatida yashil lizingni qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan. Shunga qaramay, O'zbekistonda yashil lizingni rivojlantirish jarayonida qator muammolar mavjud. Xususan, bu borada yetarli huquqiy asosning shakllanmaganligi, soliq imtiyozlarining cheklanganligi va lizing oluvchilar uchun moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Yashil lizing bozori davlat tomonidan rag‘batlantirilganda tez sur‘atlarda rivojlanadi. Masalan, Germaniya va Fransiya hukumatlari 2020-yildan boshlab yashil texnologiyalar lizingiga 10-15% miqdorida davlat subsidiyalarini taqdim etmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston uchun ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Yashil lizingning istiqbolli yo‘nalishlari qatoriga qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik transport, energiya tejamkor qurilmalar va chiqindisiz texnologiyalarni moliyalashtirish kiradi. Xususan, xalqaro moliya institutlarining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilga borib yashil lizing global bozorining hajmi 2 trillion AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda. Shuningdek, yashil lizingni rivojlantirish uchun xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Jahon Banki va Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan Markaziy Osiyo davlatlarida ekologik lizing dasturlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan kredit liniyalari yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2021-yilda ushbu institutlar tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlariga ajratilgan mablag‘larning 12% yashil lizingga yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 20% ga yetdi. O‘zbekiston ham bunday moliyaviy manbalardan samarali foydalanish orqali yashil lizing bozorini yanada rivojlantirishi mumkin.

Richard L. Scott o‘zining “Green Leasing and Sustainable Finance” (Yashil lizing va barqaror moliyalashtirish) asarida yashil lizingni rivojlantirishda moliyaviy hisobotning shaffofligi va xalqaro standartlarga mos kelishining muhimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, yashil lizing operatsiyalari ekologik mas’uliyatni oshirish bilan birga, investorlar uchun jozibador bo‘lishi kerak. Scottning tadqiqotlariga ko‘ra, AQSh va Yevropa mamlakatlarida yashil lizing bozorining o‘sish sur‘ati yillik 12–15% ni tashkil etmoqda [8]. Hans-Dieter Klein “Eco-Friendly Leasing: Financial and Environmental Aspects” (Ekologik lizing: moliyaviy va ekologik jihatlar) nomli tadqiqotida yashil lizingning ekologik barqarorlikka ta’sirini o‘rganib chiqdi. Uning fikricha, lizing kompaniyalari uchun ekologik standartlarga mos aktivlarni moliyalashtirish uzoq muddatda iqtisodiy

jihatdan ham foydali bo‘ladi. U Germaniya misolida yashil lizing loyihalariga ajratilgan investitsiyalar 2015-yilda 5 milliard yevro bo‘lsa, 2023-yilda 20 milliard yevroga yetganini ta’kidlaydi [9]. James P. Robertson “Sustainable Leasing and Circular Economy” (Barqaror lizing va aylana iqtisodiyot) kitobida yashil lizingning sanoat rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganadi. Unga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik transport vositalari bo‘yicha lizing operatsiyalarini rivojlantirish karbon chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi. Robertsonning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, Xitoy va Yevropa Ittifoqida yashil lizingni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar tufayli sanoat korxonalarining energiya samaradorligi 10-15% ga oshgan [10]. U.R.Karimov fikricha, 2010-yildan 2018-yilgacha O‘zbekistonda lizing operatsiyalari hajmi 5 baravar oshgan, biroq yashil lizing sohasi hali to‘liq rivojlanmagan. U yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun ekologik lizing bozorini shakllantirish muhimligini ta’kidlab, bu borada xorijiy tajribadan foydalanish zarurligini qayd etadi [2]. B.X.Tursunov fikriga ko‘ra, 2020-yilda O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish hajmi yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 1,5% ini tashkil etgan bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 5-7% ni tashkil qiladi. Tursunov yashil lizing mexanizmlarini rivojlantirish orqali energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkinligini ta’kidlaydi [3]. D.A.Yusupov fikricha, O‘zbekistonda yashil lizingni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari, davlat subsidiyalari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish lozim. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agar 2025-yilgacha ekologik lizing operatsiyalarining ulushi 10% ga yetkazilsa, bu mamlakat iqtisodiyotida uglerod izini 8-10% ga kamaytirishga yordam beradi [4].

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida lizing muomalalari hisobini o‘rganish uchun iqtisodiy tahlil, solishtirma tahlil va statistik usullardan foydalanilgan. Tadqiqot doirasida O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi yashil lizing bozorining rivojlanish tendensiyalari o‘rganilib, ularning moliyaviy natijalari taqqoslandi.

O‘zbekistonda yashil lizingni rivojlantirish uchun yetarli darajada huquqiy asos mavjud emas. Mavjud lizing to‘g‘risidagi qonunchilik ekologik mezonlarni

qamrab olmaydi, bu esa yashil lizingni rag'batlantirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, soliq va moliyaviy imtiyozlarning yetishmasligi lizing kompaniyalari va investorlarning ekologik loyihalarga sarmoya kiritishiga to'sqinlik qilmoqda. Yashil lizingni rivojlantirish uchun uzoq muddatli va past foizli moliyaviy manbalar talab etiladi, biroq hozirgi kunda bu sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar yetarli emas. Bank va moliya institutlari yashil loyihalarning qaytuvchanligi bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lmagani uchun bunday lizing operatsiyalarini moliyalashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. O'zbekistonda yashil lizing xizmatlari bo'yicha mutaxassislar va ekspertlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, lizing kompaniyalari va tadbirkorlar o'rtasida yashil texnologiyalardan foydalanish va ularning samaradorligi to'g'risida ma'lumot yetarli emas. Natijada, ekologik toza aktivlarni lizing asosida xarid qilish sust kechmoqda. Rivojlangan davlatlarda yashil lizing energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik transport vositalarini moliyalashtirishda keng qo'llanilmoqda, biroq O'zbekiston bu borada yetarlicha xalqaro hamkorlik o'rnata olmagan. Yashil moliyalashtirish bo'yicha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, ilg'or tajribalarni joriy etish va texnologiyalar transferini jadallashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda yashil lizing bozorining o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar baholanadi. Tahlil uchun regressiya modeli qurilib, yashil lizing bozorining hajmiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Tahlil qilish uchun quyidagi asosiy o'zgaruvchilar tanlandi:

$Y$  (*Dependent variable*) – yashil lizing operatsiyalari hajmi (mlrd so'm);

$X_1$  – foiz stavkasi (%);

$X_2$  – yashil investitsiyalar hajmi (mlrd so'm);

$X_3$  – hukumat subsidiyalari hajmi (mlrd so'm);

$X_4$  – xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ajratgan grantlari (mlrd so'm);

$X_5$  – yashil soliq imtiyozlari (%).

*Model tuzilishi*

Ekonometrik model sifatida ko'p omilli regressiya modeli qo'llaniladi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \epsilon$$

Bu yerda:

$\beta_0$  – doimiy koeffitsient,

$\beta_i$  – har bir mustaqil o‘zgaruvchining yashil lizing operatsiyalariga ta’sirini ko‘rsatuvchi koeffitsientlar,

$\epsilon$  – tasodifiy xatolik.

Tahlil natijalariga ko‘ra, yashil lizing bozorining o‘shishiga eng kuchli ta’sir qiluvchi omillar quyidagilar bo‘ldi:

Foiz stavkasi ( $X_1$ ):

regressiya natijalariga ko‘ra, foiz stavkasining pasayishi yashil lizing bozorining 9,34 birlikka oshishiga sabab bo‘ladi;

bu statistik jihatdan ahamiyatli ( $P = 0.002$ ), ya’ni foiz stavkalari pasaygani sari yashil lizing operatsiyalarining hajmi ortadi.

Hukumat subsidiyalari ( $X_3$ ):

hukumat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalar 4,07 birlik darajasida yashil lizing hajmini oshiradi;

bu ham ahamiyatli natija ( $p = 0.052$ ) bo‘lib, davlat tomonidan moliyaviy yordam berish yashil lizingning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning grantlari ( $X_4$ ):

bu omil yashil lizing bozorining 5,86 birlik oshishiga sabab bo‘ladi ( $p = 0.000$ );

natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro moliyalashtirish resurslari jalb etilsa, yashil lizing bozori ancha tez rivojlanadi.

Yashil soliq imtiyozlari ( $X_5$ ):

soliq imtiyozlarining oshirilishi yashil lizing bozorini 1,53 birlikka oshiradi ( $p = 0.000$ );

bu muhim omil bo‘lib, yashil lizing bozorini rivojlantirish uchun soliq yengilliklarini kengaytirish muhimligi tasdiqlandi.

R-squared (0.999) juda yuqori bo'lib, bu modelning lizing hajmini yaxshi tushuntirishini ko'rsatadi.

Foiz stavkalari va xalqaro grantlar asosiy omillar bo'lib, ularni tartibga solish yashil lizing rivojlanishini tezlashtiradi.

Davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlarini oshirish yashil lizing bozori uchun muhim qo'llab-quvvatlovchi omillar hisoblanadi.

Yashil lizing bozorining rivojlanishi foiz stavkalarining pasayishi, xalqaro moliyalashtirish va davlat subsidiyalarining oshishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ekonometrik tahlil orqali tasdiqlandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, foiz stavkalarini pasaytirish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va soliq imtiyozlarini kengaytirish yashil lizing operatsiyalarining hajmini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu sababli, hukumat va moliyaviy institutlar tomonidan lizingni rag'batlantirish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining joriy etilishi global va milliy moliyaviy bozorlar uchun dolzarb masalaga aylandi. Yashil lizing esa ekologik barqaror rivojlanish va investitsiyalarni rag'batlantirishning samarali vositalaridan biri bo'lib, rivojlangan davlatlar ushbu instrumentdan keng foydalanmoqda. O'zbekistonda ham yashil lizing tizimini rivojlantirish maqsadida bir qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida lizing muomalalari hisobining muammolari, istiqbollari va yechimlari tahlil qilinadi.

## 1-jadval

### Yashil lizing bozorini rivojlantirishda asosiy omillar

|   | Omillar                          | Tavsif                                                        | Kutilayotgan natija                      |
|---|----------------------------------|---------------------------------------------------------------|------------------------------------------|
| 1 | Foiz stavkalarini pasaytirish    | Yashil lizing bo'yicha imtiyozli kreditlar ajratish           | Lizing operatsiyalarining o'sishi        |
| 2 | Soliq imtiyozlarini kengaytirish | Yashil texnologiyalar uchun soliq yengilliklari berish        | Yashil investitsiyalar hajmining oshishi |
| 3 | Hukumat subsidiyalarini oshirish | Yashil lizing bo'yicha davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash | Ekologik transport va energiya tejamkor  |

|   |                                           |                                                                         | texnologiyalarga talabning oshishi             |
|---|-------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|
| 4 | Xalqaro investitsiyalarni jalb etish      | Yashil obligatsiyalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik | Moliyaviy resurslar oqimining ko'payishi       |
| 5 | Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish | Lizing to'g'risidagi qonunchilikka yashil moliyalashtirishni qo'shish   | Yashil lizing bozorining barqaror rivojlanishi |
| 6 | Infratuzilmani rivojlantirish             | Yashil texnologiyalar va ekspertlar bazasini kengaytirish               | Bozor ishtirokchilarining faolligini oshirish  |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yashil lizing bozorini rivojlantirish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Eng muhim omillar qatoriga foiz stavkalarini pasaytirish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va huquqiy bazani takomillashtirish kiradi. Shuningdek, soliq imtiyozlarini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali yashil texnologiyalar va ekologik transport vositalaridan foydalanish hajmini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu sababli, davlat tomonidan moliya institutlari va xususiy sektor uchun qulay sharoitlar yaratish kelajakdagi yashil lizing bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida lizing muomalalarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ekologik toza texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish va investitsion muhitni yaxshilash uchun muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil lizing operatsiyalarining hajmini oshirish uchun foiz stavkalarini pasaytirish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va davlat subsidiyalarini kengaytirish muhim omillar hisoblanadi. Ayniqsa, yashil obligatsiyalar va xalqaro moliyaviy tashkilotlarning grantlarini jalb qilish lizing bozorining tez o'sishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, yashil lizing bozorining samarali rivojlanishi uchun huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, soliqlar bo'yicha imtiyozlarni kengaytirish va yashil texnologiyalarni moliyalashtirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish talab etiladi. Moliya institutlari va lizing kompaniyalari uchun qulay investitsion muhit yaratish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan preferensiyalarni joriy etish yashil lizing bozorini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil infratuzilmani rivojlantirish va texnologik



innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali lizing operatsiyalarining samaradorligini oshirish mumkin.

Yashil lizingning rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari asosida foiz stavkalarini pasaytirish, soliqlar bo'yicha yengilliklar yaratish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha strategik qarorlar ishlab chiqish lozim. Kelajakda xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda yashil lizing mexanizmlarini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotga integratsiya qilish O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2030-yilgacha O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Lex.uz
2. Karimov U.R. O'zbekistonda moliyaviy lizingning rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti, 2019.
3. Tursunov B.X. Barqaror rivojlanish sharoitida yashil moliya va investitsiyalar. – Toshkent: Fan va innovatsiya nashriyoti, 2021.
4. Yusupov D.A. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va moliyaviy lizingni rivojlantirish istiqbollari. – Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar institute, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirish bo'yicha milliy hisobot. – Toshkent: Markaziy bank nashriyoti, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi. – Toshkent, 2022.
7. Hasanov N.T. Lizing operatsiyalarining huquqiy va iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
8. Scott R. L. Green leasing and sustainable finance. oxford university press, UK. 2018 yil 45-78 betlar.
9. Klein H.D. Eco-friendly leasing: financial and environmental aspects. springer, Germany. 2020-yil. 112-145-betlar.

10. Robertson J.P. Sustainable leasing and circular economy. Cambridge university press, USA. 2021-yil. 67-103-betlar.

11. International financial reporting standards (IFRS) IFRS 16 - Leases. IFRS Foundation, London. 2023- yil. 1-50-betlar.

12. World Bank Green Finance and Leasing Market Development Report. Washington, D.C. 2022-yil. 23-89-betlar

13. European leasing association (ELA) Sustainable leasing in the EU: Trends and regulations. brussels, belgium.2021-yil. 30-77-betlar.

14. Asian Development Bank (ADB) Green Leasing and Climate Finance in Emerging Economies. Manila, Philippines. 2023-yil. 15-58-betlar.